

## “SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDA TROPLAR TAHLILI

Shodiya Otanazarova

*Urganch davlat universiteti, O‘zbek filologiyasi fakulteti, 3-kurs talabasi*

**Trop** – (yunoncha “tropos” – nutqning o‘zgarishi) nutqning va ifodaviyligi va ta’sirchanligini oshirish maqsadida so‘z va iboralarning ko‘chma ma’noda qo‘llanishidan iborat poetika va stilistika tushunchasi; shunday ma’noda qo‘llangan so‘z va iboralarning umumiy nomi. Bunda odatiy tarzda ma’lum bir predmet (hodisa, jarayon, xususiyat va boshqalar) nomini atovchi so‘z, so‘z birikmasi muayyan nutq vaziyatida boshqa predmet (voqea, jarayon va boshqalar) ni bildirish uchun qo‘llanadi; hosila so‘z, ya’ni ko‘chma ma’nodagi so‘z o‘zining kelib chiqishiga asos bo‘lgan so‘z (so‘z birikmasi) bilan o‘xshashlik yoki aloqadorlik jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Ular orasida ma’lum darajada miqdoriy yoki sifatiy tafovutlar bo‘lishi mumkin. Masalan, lochin bir vaqtning o‘zida hayvon nomi, shu bilan birgalikda metafora sifatida tez harakat qiluvchi insonga nisbatan ham ishlatiladi.

“**Trop**” atamasi birinchi marta yunon olimi Aristotel (Arastu) tomonidan ishlatilgan. Strukturaviy tilshunoslik, matn lingvistikasi kabi tilshunoslik tarmoqlarining yuzaga kelishi bu atamaga bo‘lgan munosabatni tubdan o‘zgartirdi. Natijada trop semantik transpozitsiya (ma’noviy ko‘chish)ning hosilasi tarzida o‘rganiladigan bo‘ldi. O‘zbek tilshunosligida uning mazkur ko‘rinishlari alohida-alohida tadqiqotlarning manbai bo‘lib, badiiy matnlar asosida atroflicha o‘rganilgan<sup>36</sup>.

Badiiy adabiyotimizda o‘rganiladigan metafora, metanimiya, istiora va shunga o‘xshash ko‘chimlar asosi tropga borib taqaladi.

**Metafora.** Narsa-buyum, voqea-hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro o‘xshashlikka asoslangan ma’no ko‘chishiga metafora deyiladi. Metafora ko‘chma ma’no hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri bo‘lib, mumtoz adabiyotshunosligimizda “istiora” deb yuritilgan. Masalan, Navoiyning quyidagi baytlarida istioradan mohirona foydalanilgan:

Sen labing so‘rgan soyi men qon yutarman, ey habib,

Sen may ichgilkim, manga xuni jigar bo‘lmish nasib<sup>37</sup>.

Ushbu baytdagi “qon yutarman” iborasi ham o‘z ma’nosida qo‘llanmagan, balki “iztirob chekaman” ma’nosini anglatadi. Demak, u ham istiora bo‘la oladi.

O‘xshatish va metafora tushunchalari boshqa-boshqa tushunchalar. Mumtoz adabiyotimizda metafora “istiora” deb yuritiladi, o‘xshatish esa “tashbih”.

**O‘xshatish** deb “ikki narsa yoki voqea-hodisa o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to‘laroq, konkreteroq, bo‘rttiribroq ifodalash” ga aytiladi. O‘xshatishlar eng qadimiy tasviriy vositalardan biri

<sup>36</sup> Ibodullayev M. Lingvistika va poetika. – Moskva, 1979. -B.83.

<sup>37</sup> Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – T.: Sharq 1999. –B.45.

bo'lib, nutqimizni, ayniqsa, badiiy adabiyot tilini bezashda, tasvirning aniqligi va obrazlilikini ta'minlashda foydalanib kelinadi.

O'xshatishga tashbih san'ati asoslangan. "Tashbeh – Sharq adabiyotida keng tarqalgan san'atlardan biri bo'lib, "o'xshatish" ma'nosini ifodalaydi. Bu ikki narsa yoki tushunchani ular o'rtasidagi haqiqiy (real) yoki majoziy munosabatlarga ko'ra o'xshatish san'atidir. Tashbih san'ati tasvirlanayotgan shaxs, buyum yoki tushunchani o'quvchi ko'z o'ngida aniqroq, jozibaliroq gavdalantirishga xizmat qilib, asar timsollari ma'naviy qiyofasini yorqinroq ochish, binobarin, shoir g'oyasini o'quvchi ongiga to'laroq yetkazishga imkon beradi"<sup>38</sup>.

Tashbeh san'atining bir necha turi mavjud bo'lib, ular tashbehi mutlaq, tashbehi kinoya, tashbehi mashrut, tashbehi tavsiya, tashbehi aks, tashbehi izmor va tashbehi tafzil nomlari bilan ataladi. "Saddi Iskandariy" dostonidagi hikoyatlarda bu san'atning "tashbehi mutlaq" turi tez-tez ko'zga tashlanadi. "Aniq o'xshatish" ma'nosini ifodalovchi bu xil san'at go'yo, singari, kabi, yanglig', -day, -dek, kabi so'z yoki qo'shimchalar vositasida hosil qilinadi. Masalan, "Iskandar bila ul gadolig' ixtiyor etgan podsho" hikoyatida shunday bayt keltiriladi:

Qolibmu ekin bir aningdek kishi –

Ki, qilsam ruju' anga mulk ishi?

Baytdan shunday bir kishi qolibdimi, unga saltanat ishlarini topshirsam degan ma'no anglashiladi va -dek qo'shimchasi mutlaq tashbehni yuzaga keltirgan.

Tashbeh san'ati unsurlari to'rttadir:

1. Mushabbih – nima o'xshatilgan bo'lsa, o'sha narsa yoki tushuncha.
2. Mushabbihun bih – nimaga o'xshatilgan bo'lsa, o'sha narsa yoki tushuncha.
3. Vajhi shabih – mushabbih bilan mushabbihun bih orasidagi munosabat.
4. Vositayi tashbih – o'xshatish belgisi.<sup>224</sup>

"Bulbul" hikoyatidan olingan mana bu baytda:

Chu gul yo'qturur o'n bir oy bog' aro,

Erur ro'zg'orim seningdek qaro.

Baytda "ro'zg'orim" so'zi – mushabbih, "seningdek" so'zi – mushabbihun bih, "qaro" so'zi – vajhi shabih, seningdek so'zidagi "-dek" qo'shimchasi – vositayi tashbih.

Xulosa qilib aytganda, tilshunosligimizda ko'chimlar deya nom olgan birliklar adabiyotimizda ma'lum bir she'riy san'atlar asosi hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ibodullayev M. Lingvistika va poetika. – Moskva, 1979. 112-b.
2. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiy malohati. – T.: Sharq, 1999. 295-b.
3. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – T.: Sharq, 1998. 300-b.
4. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. – T.: Fan, 1993. 693-b.

<sup>38</sup> Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – T.: Sharq, 1999. –B.14.